

de qıstı biymálel ótkere aladı. Denesindegi joqarı temperatura, tıgız ıssı párleri hám gawısh ishine kirip alıwı olardı suwıqtan asıraydı.

Ádetde bir bódene segiz ay bağıladı, sonnan altı ay dawamında máyek alınadı, segiz aydan keyin góshke soyladı. Bir bódene altı ay dawamında shama menen 130 danağa shekem máyek beredi. Bunı bódeneler sanına kóbeytirip, dáramattı shamalaw múmkin. Bódene kesellikleriniń aldın alıw. Bódene salınған ketekti úzliksiz tárizde tazalaw onı tez-tez dezinfeksiyalab turıw usınıs etiledi. Sonıń menen birge, olardı bağıwshı adamnıń ózi de sanitariya hám gigiena talaplarına qatań ámel qılıwğa bólek itibar qaratıwı zárúr.

Paydalanған ádebiyatlar

1. N.I.Nurmaxmedov. Bedanalarni boqish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2019y.
2. Islomxo'jaev.S.S, Boboev.K.X, G'ulomov.K «Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar» Darslik.Toshkent O'zbekiston nashriyoti. 1996 y.

QORAQALPOQ ZOT TIPIGA MANSUB QAMAR RANGBARANGLIKDAGI QORAKO'L QO'YLARINING GO'SHT MAHSULDORLIGI

Astankulov A., Hakimbayev D., Madraimova Sh., Jumabayeva M.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarning go'sht mahsuldorligi yaylov sharoitida semirtirish orqali aniqlandi va hulosalar berildi.

Kalit so'zlar. Qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylar, go'sht mahsuldorligi, tirik vazni, nimta og'irligi, so'yim chiqimi.

Kirish. Qo'zilarni yaylov sharoitida go'sht uchun boqishni tashkillashtirish go'sht etishtirish zahirasini oshirish va oziq ovqat muammosini echishga muhim ahamiyatga ega. Qo'zilarning go'sht mahsuldorligini oshirishning samarali usullarini tadbiq qilgan bir qator tadqiqotchilarning Rossiya sharoitida [1] va O'zbekiston sharoitida [2] tajriba xulosalariga ko'ra, yosh qo'zilarni yaylov sharoitida semirtirish go'sht etishtirishda va xo'jalikning rentabelligini oshirishda iqtisodiy samarali usullar hisoblanadi. Yaylov sharoitida 7-oylik qo'zilarni qo'shimcha oziqlantirishni tavsiya qilgan holda [3] ijobiy natijalar olishini ta'kidlaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoq tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarining go'sht mahsuldorligi ko'rsatkichlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obekti sifatida. Qoraqalpoq zot tipiga mansub sur qorako'l qo'ylarining kamar rang-barangliklaridagi qo'zilar olindi.

Tajriba joyi va usullari: Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Shimoliy Qizil-qum xududlari bo‘lgan Qorao‘zak tumanining qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida olib borildi.

Tajribadagi qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligi 24 soat och qoldirib, taroziga tortish yo‘li bilan aniqlandi va quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholandi: so‘yimdanda oldingi tirik vazn, gavdaning va ichki yog‘ning og‘irligi, so‘yim og‘irligi, so‘yim chiqimi ko‘rsatkichlari aniqlandi. So‘yim chiqimi qo‘rsatkichi so‘yim vaznining so‘yishdan oldingi vazniga nisbatining foizdagi ifodasida aniqlandi. Tajribadagi qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligi nazorat so‘yim o‘tkazish orqali (Izuchenie myasnoy produktivnosti ovets. Metodicheskie rekomendatsii. Vsesoyuzniy nauchno issledovatel’skiy institut jivotnovodstva (1978)) asosida tarozida tortish yo‘li bilan aniqlandi.

Asosiy qism. Bugungi kunda qorako‘lchilikda soha samaradorligini oshirishda qo‘zilar go‘sht mahsuldorligidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etgan holda, qorako‘l qo‘ylarining asosiy mahsuloti hisoblangan qorako‘l terilarining sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir qilmagan holda, seleksiya ishlarini yuritish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan go‘sht mahsuldorligini, qorako‘l terilari sifatini oshirish bilan bir qatorda, amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpog‘iston sharoitida yosh qo‘zilarni yaylov sharoitida semiritirishda etishtiriladigan go‘sht mahsulotlarining tannarxi arzon va xo‘jalik uchun iqtisodiy samarali hisoblanadi. Bunda xo‘jalikdagi qo‘zi ayirish jarayonida nasliy xususiyatlari bo‘yicha baholangan va yaroqsiz deb topilgan faqat erkak qo‘zilar ayirib olinib, hosildorligi yuqori bo‘lgan yantoqli va yarim butali yaylovlardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

Bizning tajriba davomida yaylov sharoitida 7-oylik qo‘zilarning go‘sht mahsuldorligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar quyidagi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Qo‘zilarning go‘sht mahsuldorligi (7-oylik yaylov sharoitida)

Ko‘rsatkichlar	Qamar variatsiyalari		
	Ochiq qamar (n=34)	Qizil qamar (n=37)	Qora qamar (n=39)
	X±Sx		
Yaylov sharoitida semirtishdan oldingi vazni, kg	24,7±2,03	25,2±2,12	25,0±2,43
Semirtirish oxiridagi vazni, kg.	30,8±2,54*	31,7±3,06*	29,8±0,50*
Yaylovda semirtirish muddati, kun	90	90	90

Mutlaq o‘shish, kg	6,1	6,5	4,8
Sutkalik o‘rtacha o‘shish, g	67,7	72,2	53,3

*p<0,001

Qo‘zilarning go‘sh t mahsuldorligi (1-jadval) bo‘yicha olingan ma‘lumotlar ko‘rsatadiki, tajriba davomida (90-kun) erkak qo‘zilar qo‘zi ayirish davrida ajratib olinib, alohida pada shakllantirilib, hosildorligi yuqori yaylovlardan foydalangan holda semirtirish olib borildi. Bunda yaylov sharoitida semirtirishdan oldingi tirik vazni ochiq qamarda $24,7 \pm 2,03$ kg.ni, qizil qamarda $25,2 \pm 2,12$ kg.ni va qora qamarda, $25,0 \pm 2,43$ kg.ni tashkil qilib. 90-kun davom etgan semirtirish oxiridagi tirik vazni shunga ravishda $30,8 \pm 2,54$; $31,7 \pm 3,06$ va $29,8 \pm 0,50$ kg.ga etgani aniqlandi. Shuni ta‘kidlash joizki, tirik vaznining mutlaq o‘shish ko‘rsatkichlari qizil qamarda ustunlik qilib, 6,5 kg.ni tashkil qilgan bo‘lsa, ochiq qamarda 0,4 kg va qora qamarda 1,7 kg. kam bo‘ldi.

Qo‘zi ayirishdan keyingi davrda yaylov sharoitida qamar qo‘zilarini 90-kun muddatda semirtirish maqsadida saqlandi va olingan go‘sh t mahsuldorligi ma‘lumotlari quyidagi 2-jadvalda umumlashtirilgan.

Olingan ma‘lumotlar (2-jadval) tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘yim oldi tirik vazni ochiq qamarda $30,8 \pm 2,54$ kg., qizil qamarda bu ko‘rsatkich $31,7 \pm 3,06$ kg. va qora qamarda esa $29,8 \pm 0,50$ kg.ni tashkil qildi. Qo‘zilarni go‘sh t uchun so‘yishdan oldin 24 soat mabaynida och qoldirishga qo‘yilib, bunda ochiq qamarda 7,5 % oshqozondagi qabul qilingan ozuqalar hisobiga tirik vazn kamaytirishi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich qizil qamarda esa, 7,3 % va qora qamar bu ko‘rsatkich 7,1 %ni tashkil qildi.

2-jadval

Qamar qo‘zilarining yaylov sharoitidan keyingi go‘sh t mahsuldorligi

Ko‘rsatkichlar	Qamar variatsiyalari		
	Ochiq qamar	Qizil qamar	Qora qamar
Qo‘zilar bosh soni,	3	3	3
	X±Sx		
So‘yim oldi tirik vazn, kg	$30,8 \pm 2,54$	$31,7 \pm 3,06^*$	$29,8 \pm 0,50$
Foizda	100	100	100
24 soatdan keyingi tirik vazn, kg	$28,5 \pm 0,26$	$29,4 \pm 0,21$	$27,7 \pm 0,26^*$
Foizda	92,5	92,7	92,9
Nimta og‘irligi, kg	$13,4 \pm 0,12$	$13,9 \pm 0,13^*$	$12,9 \pm 0,10$
Foizda	46,9	47,4	46,6
Ichki yog‘lar og‘irligi, kg	$0,42 \pm 0,03^*$	$0,46 \pm 0,03$	$0,37 \pm 0,03$
Foizda	3,1	3,3	2,9
Suyaklar og‘irligi,kg	$3,45 \pm 0,21$	$3,50 \pm 0,19^*$	$3,36 \pm 0,24$
Foizda	25,8	25,2	26,1
Paylar og‘irligi,kg	$0,25 \pm 0,01$	$0,24 \pm 0,01$	$0,25 \pm 0,02^*$
Foizda	1,87	1,78	1,97

Lahm go'sht og'irligi, kg	9,28±0,78*	9,70±0,81	8,92±0,76
Foizda	68,8	69,7	69,1
So'yim og'irligi, kg	13,8±0,11	14,4±0,13	13,3±0,12*
So'yim chiqimi, %	48,4	48,9	48,0
Go'shtdorlik koeffitsienti	2,68	2,77	2,65

*p<0,001

Qo'zilar so'yilgandan keyingi nimta og'irligi ochiq qamarda 13,4±0,12 kg.-ni tashkil qilagan bo'lsa, qizil qamarda 13,9±0,13 kg.-ni va qora qamarda esa bu ko'rsatkich 12,9±0,10 kg.-ga teng bo'ldi. Bunda ichki yog'lar, paylar, suyaklar og'irligi hisobga olinib lahm go'sht miqdori aniqlanildi. So'yim chiqimi ochiq qamarda 48,4 %-ni tashkil qilagan bo'lsa, qizil qamarda ushbu ko'rsatkich 48,9 %-ga va qora qamarda esa 48,0 %-ga teng bo'ldi.

So'yim chiqimi bo'yicha qizil qamar ustunlik qilib, uning ochiq qamarga nisbatan 0,5 %-ga va qora qamarga nisbatan esa, 0,9 %-ga ko'p ekanligi aniqlandi.

Qamar qo'zilarida submahsulotlar chiqimi ko'rsatkichlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.


3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, qamar qo'zilarini rangbaranglik variatsiyalarida submahsulotlar chiqimi bo'yicha olingan ma'lumotlarda so'yishdan oldingi vazni nisbatan ochiq qamarda boshi 4,3 %; terisi 8,2 %; yurak 0,5 %; o'pka 0,8; jigar 1,2 %; buyrak 0,3 % va oshqozon 6,7 %-ni tashkil qilagan. Ushbu ko'rsatkichlar shunga mutanosib ravishda 4,2 %; 7,6%; 0,9 %; 1,0 %; 1,2 %; 0,4 %; va 6,6 %-ga teng bo'lgan bo'lsa, qora qamarda bu ko'rsatkichlar 4,7 %; 8,3 %; 0,9 %; 1,2 %; 1,1 %; 0,4 %; va 6,8 %-ni tashkil qildi.

3.-jadval

Qamar qo'zilarida submahsulotlar chiqimi, %.

Ko'rsatkichlar	Qamar variatsiyalari					
	Ochiq qamar (n=3)		Qizil qamar (n=3)		Qora qamar (n=3)	
	kg	%	kg	%	kg	%
So'yishdan oldingi vazni	30,8±2,54	100	31,7±3,06	100	29,8±0,50	100
Boshi	1,32	4,3	1,33	4,2	1,40	4,7
Terisi	2,53	8,2	2,41	7,6	2,47	8,3
Qon	1,91	6,2	2,19	6,9	2,21	7,4
Yurak	0,15	0,5	0,29	0,9	0,27	0,9
O'pka	0,25	0,8	0,32	1,0	0,36	1,2
Jigar	0,37	1,2	0,38	1,2	0,33	1,1
Buyrak	0,09	0,3	0,13	0,4	0,12	0,4
Oshqozon	2,06	6,7	2,09	6,6	2,03	6,8

Qon ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlarda farqlanishlar kuzatilib, ushbu ko'rsatkichlar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Qamar variatsiyalaridagi qo'zilar tirik vazniga nisbatan qon ko'rsatkichlari, %

1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, qamar variatsiyalaridagi qo'zilar tirik vazniga nisbatan qon miqdori ochiq qamarda 6,2 %, qizil qamarda 6,9 % va qora qamarda 7,4 %ga teng bo'ldi. Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, ochiq qamarda 0,7 %ga qizil qamarga nisbatan va qora qamarga nisbatan 1,2 %ga kam ekanligi kuzatildi. Bunday holatni ochiq qamar qo'zilar orasida dag'al tip konstitutsiyaga ega qo'zilar bosh soni ko'pligi va qora qamar orasida esa, nozik tip konstitutsiya ega qo'zilar bosh soni ko'pligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ochiq, qizil va qora qamar variatsiyalari orasida submahsulotlar chiqimi bo'yicha deyarli farqlanishlar kuzatilmadi. Sutkalik o'rtacha o'sish (kunlik o'sim) qora qamarda o'zining tengqurlariga nisbatan kam ko'satkichga ega bo'lib (53,3 gramm) ushbu ko'satkichni 100 % deb qabul qilinsa, qizil qamarda 35,5 %ga va ochiq qamarda 27,0 %ga ustunlik qildi. Qamar variatsiyalaridagi qo'zilar tirik vazniga nisbatan qon miqdori ma'lumotlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu ko'satkich eng kam ochiq qamarda, eng ko'p qon miqdori qora qamarda kuzatilib, qizil qamarning oraliq o'rinni egallashi aniqlandi. Qora qamarda qon miqdori ko'p bo'lishi bu hayvonlarning ko'proq qismi nozik tipli konstitutsiyaga ega bo'lgan, qon miqdori kam bo'lish esa, dag'al konstitutsiya tipiga mansubligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амиров А. К. «Сравнительная характеристика мясо-сальной продуктивности овец каракульской породы, курдючных овец «джайдара и помесей тонкорунных с курдючными» Автореферат Диссертации на соискание ученой степени кандидата сельскохозяйственных наук Душанбе 1962, с.16.

2. Бурбонова М. А. Формирование мясности куйбышевских овец в онтогенезе. Автореф. дисс. к.с.х.н. Дубровицы. 2004. 25 стр
3. Турганбаев Р.У. Каракалпакский породный тип каракульских овец окраски сур. Монография. Тошкент 2012, 164-бет.
4. Укбаев Х. И. Казахская каракуль – курдючная порода овец. Сб. матер. научно– практической конф. Самарканд 2019. 139-140 стр.

QORAQALPOQ ZOT TIPIGA MANSUB QAMAR RANGBARANGLIKDAGI QORAKO‘L QO‘ZILARNING TIRIK VAZNNING MUTLAQ, NISBIY VA KUNLIK O‘SISH DINAMIKASI

**Astankulov A., Ibragimov T., Hasanboyev T.,
Matnazarova M. Bakturdiyeva Sh.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada qamar rangbaranglikdagi qo‘zilarning tirik vazni, mutlaq, nisbiy va kunlik o‘shish dinamikasi o‘rganildi va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar. qamar rangbaranglik, tirik vazn, nisbiy, mutlaq va kunlik o‘sim

Kirish. So‘ngi yillarda jahon miqyosida qorako‘lchilik sohasida rangli terilarga, aynan sur rangli terilarga ichki va tashqi bozorlarimizda talab ortib bormoqda. Shu bois, qorako‘l qo‘ylari urchitiladigan mamlakatlarda aholining qorako‘l terilariga va qorako‘lchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida, sur rangli turli rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘zilar salmog‘ini mumkin qadar oshirish bilan bir qatorda, qo‘chqorlarning geneotipini yaxshilash borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. [1] o‘z tadqiqotlarida qo‘ychilikda duragay avlodlar olish muhim hisoblanib, geterozis natijasida duragay avlodlarda qimmatli mahsuldor xususiyatlar shakllanishiga olib kelishi takidlanadi. Bunday analogik tadqiqotlar romanov zotli qo‘ylarini chatishtirishdan olingan avlodlarda Rossiya olimlari tomonidan [3], kuzatilgan. Muallif xulosiga ko‘ra, qo‘ylarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bo‘g‘in avlodlarida jadal o‘shish ko‘rsatkichlari kuzatilib, mutloq va nisbiy o‘shish tezligi yuqori ekanligi qayd etiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoq tipiga mansub qamar rang-baranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining tirik vaznining mutlaq, nisbiy va kunlik o‘sim ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obekti sifatida. Qoraqalpoq zot tipiga mansub sur qorako‘l qo‘ylarining kamar rang-barangliklaridagi qo‘zilar olindi.

Tajriba joyi va usullari: Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Shimoliy Qizil-qum xududlari bo‘lgan Qorao‘zak tumanining qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida olib borildi.

Qorako‘l qo‘zilarining tirik vazni tug‘ilganda laborotoriya tarozisida aniqlandi, yoshi kattargandan so‘ng platformali elektron tarozida 0,1 kg gacha aniqlikdagi o‘lchash yo‘li bilan aniqlandi. Tajribadagi qo‘zilarning tug‘ilgan